

BACHADON BO'YNI EROZIYASI — SABABLARI, BELGILARI VA UY SHAROITIDA DAVOLASH

Junaydullayeva Mahliyo O'ktam qizi
Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi
“Maxsus fanlar” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Bachadon bo'yni eroziyasi — sabablari, belgilari va uy sharoitida davolash” haqida aytib o'tilgan va muallif tomonidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ob'ektiv tekshiruv, Sub'ektiv tekshiruv, endoservikoz, ektopiya, hayz sikli, gormonal buzilish, immunitet susayishi, infeksiya

CERVICAL EROSION - CAUSES, SYMPTOMS AND HOME TREATMENT

Annotation: This article discusses “Cervical erosion - causes, symptoms and home treatment” and provides recommendations by the author.

Keywords: Objective examination, Subjective examination, endocervicosis, ectopia, menstrual cycle, hormonal disruption, immunosuppression, infection

Bachdon bo'yni eroziyasi (endoservikoz, bachadon bo'yni ektopiyasi) — a'zoning vaginal qismidagi shilliq qavati yaxlitligi buzilishi, defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir. Eroziya bachadon va uning ortiqlariga infektsiya kirishiga yo'l ochadi va kichik chanoqning surunkali yallig'lanish kasalliklari rivojlanishiga sabab bo'ladi, hatto bepushtlikka olib kelishi ham mumkin.

Ginekolog qabulida deyarli har ikkinchi bemorga bachadon bo'yni eroziyasi tashxisi qo'yiladi. Umuman olganda, bu kasallik bola tug'ish yoshidagi ayollarda eng ko'p uchraydigan patologiyalardan biridir. Bachadon eroziyasining eng xavfli asorati — uning yomon sifatli o'simtga aylanishi ehtimoli mavjudligi. Shuning uchun bu kasallikni imkon qadar tezroq aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.

Sabablari

Patologiyaning ko'plab sabablari va uning rivojlanishiga turtki bo'luvchi omillar mavjud, ularning asosiylari:

- Gormonal buzilishlar va immunitetning pasayishi;
- Hayz sikli buzilishlari;
- Jinsiy hayotning juda erta boshlanishi, shuningdek, erta homiladorlik va tug'ruq;
- Jinsiy hamrohlarning tez-tez o'zgarishi;
- Shaxsiy gigienaga amal qilmaslik;


- Og'ir tug'ruq, abort va boshqa tibbiy manipulyatsiya natijasidagi mexanik jarohatlar;
- Vaginal kontratseptivlarni noto'g'ri ishlatish yoki noto'g'ri chayish, juda qo'pol jinsiy aloqa;
- Siydik-tanosil tizimining yallig'lanishli va infeksiyon kasalliklari, shu jumladan ularni kech va noto'g'ri davolash;
- Bakterial va virusli kasalliklar;
- Irsiyat.



Bachadon bo'yni eroziyasi bilan bog'liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo'qligi va ko'p hollarda o'zini umuman namoyon qilmasligi bilan murakkablashadi. Ammo eroziya rivojlanib borishi bilan bemorlar o'zlarida quyidagi belgilarni aniqlashlari mumkin:

- Menstruatsiyalar orasida qonli, ba'zan esa yiringli ajralmalar ajralishi, masalan jinsiy aloqadan keyin;
- Qindan yoqimsiz hidli ajralmalar kelishi;
- Menstruatsiyaning har doimgidan ko'ra uzoqroq davom etishi, ko'proq qon ketishi;
- Siydik chiqarish yoki jinsiy aloqa paytida qorinning pastki qismidagi og'riqlar.

Har qanday holatda, shuningdek kolposkopiya ham amalga oshiriladi (bachadon bo'yni va qinni kattalashtiruv ostida tekshirish) va onkologik kasalliklarni istisno qilish uchun eroziya yuzasidan surtma olinadi va tahlil qilinadi. Bachadon bo'ynini tasvirni 25-32 marta oshiradigan optik asbob bilan tekshirish mutlaqo og'riqsiz hisoblanadi.



Ushbu manipulyatsiya shifokorga aniq tashxis qo'yish va to'g'ri davolash choralarini belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalar va viruslar, OIV va gepatitlar, flora sinovlari va boshqa kasalliklar uchun tahlillar o'tkaziladi.

Bachadon bo'yni eroziyasini uy sharoitida xalq tabobati bilan davolash

Agar ginekologik tekshiruv paytida tashxis qo'yilgan yallig'lanish jarayoni juda kuchli bo'lmasa, bachadon bo'yni to'qimalarining yomon sifatli degeneratsiyasi alomatlari bo'lmasa, kuydirishsiz uyda eroziyani davolash mumkin.

Kasallikdan xalos bo'lishga yordam beradi:

- evkalipt yog'i, oblepixa moyi. Doka tamponlarini namlash va kechasiga qinga kiritib qo'yish kerak. Davolash kursi-ikki hafta;
- evkalipt barglari. Ikki qoshiq barglarni maydalab, bir stakan suv quying. Bug ' hammomida 20 daqiqa ushlab turing. Suzib oling. Hosil bo'lgan eritma vaginal tamponlarni ivitish yoki yuvish uchun ishlatiladi;
- aloe, kalanxoe. Ikki hafta davomida o'simliklarning barglari muzlatgichda saqlanadi. Keyin ularni maydalang (sizga taxminan 8 dona kerak bo'ladi) va yarim stakan zaytun/kungaboqar yog'ini quying. Ikki hafta qorong'i joyda saqlang. Olingan dori bilan tamponlarni namlang va tun bo'yiga qinga kiriting.
- atirgul moyi. Moyni vazelin bilan aralashtiring, to'plar hosil qiling va ularni qinga kiriting.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.YA.N. Allayorov."Onalikda hamshiralik parvarishi" Toshkent 2012
- 2.YA.N. Allayorov "Akusherlik" Toshkent, 2008
- 3.M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova "Ginekologiya" Toshkent, 2007.
- 4.Internet saytlari